



ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MEHNAT XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH TIZIMI

Turdiyeva Dilnoraxon Abduqahhor qizi

Islom Karimov nomidagi

Toshkent davlat texnika universiteti,

12-MM-24-guruh magistr talabasi

Abstract. Ushbu maqolada ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni oldini olish va xodimlarning sog'lig'ini saqlashga qaratilgan muhim bir sohaga oid tadqiqotdir. Ushbu tizimni joriy etish, korxonalarda xavfsiz ish muhitini yaratish va ishchilarning hayoti va salomatligini himoya qilishni maqsad qiladi. Mehnat xavfsizligi boshqaruv tizimining samarali ishlashi ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlaydi, ish joylarida kelib chiqadigan baxtsiz hodisalarni kamaytirishga yordam beradi. Mavzuda, xavfsizlikni boshqarishning yuridik, texnik va tashkiliy tomonlari, shuningdek, xavf-xatarlarni aniqlash va boshqarish usullari yoritiladi. Boshqaruv tizimining yaxshilanishi nafaqat ishchilar uchun, balki butun ishlab chiqarish jarayoni uchun foydalidir

Kalit so'zlar. Xavfsizlik, boshqaruv, tizim, xodim, uzluksiz.

Kirish. Ishlab chiqarish korxonalarida mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi - bu ishchilarning sog'ligi va xavfsizligini ta'minlash, jarohatlanish va kasalliklarning oldini olish, shuningdek, mehnat sharoitlarini yaxshilash maqsadida ishlab chiqilgan tizimdir. Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi asosan, xavflarni tahlil qilish, xavfsiz ish muhitini yaratish va mehnat xavfsizligi bo'yicha qo'llanma va qoidalarni joriy etishni o'z ichiga oladi.

Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy jihatlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

Mehnat xavfsizligi siyosati shundan iboratki, korxonaning mehnat xavfsizligi bo'yicha umumiy siyosati ishlab chiqiladi. Bu siyosat korxonaning yuqori rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi va barcha ishchilarga etkaziladi. Siyosatda xavfsiz ish muhitini yaratish va xavflarni kamaytirishning asosiy maqsadlari, prinsiplari va yo'nalishlari aks etadi [1].

Xavflar tahlili va baholash bu har bir ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflar tahlil qilinadi va ularning jiddiyligi baholanadi. Bunga mehnat sharoitlari, texnik vositalar, xodimlarning malakasi, ishlab chiqarish jarayonlarining xususiyatlari kiradi. Xavflar aniqlangach, ularga qarshi zarur choralar ko'riladi. Xavfsizlik bo'yicha me'yoriy hujjatlar. Ishlab chiqarish jarayonida mehnat xavfsizligi bo'yicha normativ hujjatlar va me'yorlar ishlab chiqiladi va amal

qilishini ta'minlash uchun doimiy nazorat o'rnatiladi. Bu hujjatlar xavfsizlik instruksiyalari, qo'llanmalar, ishlab chiqarish jarayonlari bo'yicha xavfsizlik qoidalari va hokazolarni o'z ichiga oladi.

O'qitish va malakasini oshirish bu ishchilarni xavfsizlikka oid o'quv dasturlari va treninglar o'tkaziladi. Har bir ishchi o'zining ish joyidagi xavf-xatarlar, xavfsizlik qoidalari va favqulodda vaziyatlarda qanday harakat qilish kerakligini bilishi kerak. Malaka oshirish orqali ishchilarni xavfsizlik bo'yicha muntazam ravishda yangilab borish zarur [2]. Ishlab chiqarish korxonalarida xavfsiz muhit yaratish uchun jismoniy vositalar (xavfsizlik ramkalari, himoya kiyimlari, avariya signalizatsiyasi, yong'inga qarshi vositalar) ta'minlanadi. Shu bilan birga, xavfsizlikni ta'minlash uchun texnik vositalar va inshootlar ham yangilanadi. Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik shularni o'z ichiga oladi. Favqulodda vaziyatlarga tayyor bo'lish uchun o'z vaqtida evakuatsiya rejalarini, o'qitishlar va simulyatsiyalar o'tkazilishi kerak. Shuningdek, favqulodda vaziyatlar uchun zarur vositalar va himoya asboblari (yong'inga qarshi tizimlar, tibbiy yordam vositalari) tayyor bo'lishi lozim [3]. Mehnat xavfsizligi tizimi doimiy monitoring va nazorat ostida bo'ladi. Har bir jarayon va tizim tekshirilib, xavfsizlik me'yorlariga mos kelishini ta'minlash uchun tekshiruvlar o'tkaziladi.



Shuningdek, jarohatlanishlar yoki boshqa avariya bo'lsa, buning sabablari tahlil qilinadi va kerakli choralar ko'riladi.

Tizimning doimiy takomillashtirilishida mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi doimiy ravishda takomillashtirilib boriladi [4]. Har qanday yangi texnologiya yoki ishlab chiqarish jarayoni joriy qilinadigan bo'lsa, tizimni yangilash zarur. Bunda xavfsizlik standartlariga muvofiqlikni ta'minlash uchun yangilangan yo'riqnomalar, qoidalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Ishchilarni motivatsiya berish uchun ishchilarni xavfsiz ish muhitini yaratish va saqlashga undash uchun turli xil rag'batlantirish tizimlari, mukofotlar va sanksiyalar mavjud bo'lishi mumkin. Bu, xavfsizlikni yuqori darajada saqlashni ta'minlashga yordam beradi.

Mehnat xavfsizligi tizimi yuridik va ijtimoiy masalalar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Har bir korxonada o'z xodimlariga tegishli mehnat shartnomalari, huquqlar va majburiyatlarini taqdim etadi, va mehnat qonunlariga rioya qilgan holda faoliyat yuritadi. Sertifikatsiya va akkreditatsiya bu, ba'zi ishlab chiqarish korxonalarida mehnat xavfsizligi tizimining yuqori sifatini tasdiqlash uchun sertifikat olishlari mumkin. Bunga ISO 45001 kabi xalqaro standartlar kiradi [5]. Bu sertifikatlar ishlab chiqarish jarayonlarining xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Natija va muhokama. Ishlab chiqarish korxonalarida mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi (MXBT) nafaqat xodimlarning salomatligini saqlash, balki ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu tizimni joriy etish va samarali boshqarish orqali korxonalar mehnat jarayonida yuzaga keladigan xavf-xatarlarni minimallashtirishi, baxtsiz hodisalarni kamaytirishi va xodimlar orasida xavfsizlik madaniyatini shakllantirishi mumkin.

Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimining asosiy maqsadi ishlab chiqarish jarayonida xavf-xatarlarni identifikatsiya qilish, ularni baholash va oldini olish uchun samarali choralar ko'rishdir. Buning uchun korxonada rahbariyati xavfsizlikni ta'minlashga doir maxsus siyosatlarini ishlab chiqishi, xodimlar uchun doimiy ravishda treninglar o'tkazilishi va xavfsizlikni nazorat qilish tizimi doimiy ravishda

yangilanishi zarur. MXBTni joriy etish jarayonida xavfsizlikka oid barcha normativ hujjatlar, qonunlar va me'yoriy talablar e'tiborga olinishi lozim. Bu esa, o'z navbatida, ishlab chiqarishning xavfsizligini ta'minlashda, asosan, mehnat sharoitlarini yaxshilashga yordam beradi. Birinchi navbatda, korxonalarda mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi joriy etilganida, xavf-xatarlarni aniqlash va baholash jarayonlari o'zaro bog'langan holda amalga oshiriladi. Xodimlar tomonidan ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga keladigan potentsial xavf-xatarlar va baxtsiz hodisalar bo'yicha muntazam ravishda hisobotlar tayyorlanadi. Ushbu hisobotlar asosida xavf-xatarlar tahlil qilinib, ularga qarshi zarur choralar ko'riladi. Korxonalarda xavfsizlikni ta'minlash uchun tizimda alohida e'tibor qaratilgan sohalardan biri — xavfsizlik texnikalarining va uskunalarining yangilanishi va doimiy ravishda tekshirilishidir. Uskunalar va apparatlar to'g'ri ishlashini ta'minlash, xavfsizlikni oshirishga yordam beradi. Mehnat muhitidagi xavfsizlikni ta'minlashda mehnat muhofazasi texnologiyalarining to'g'ri qo'llanilishi juda muhimdir. Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimining ikkinchi muhim jihati bu xodimlar bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Xodimlar xavfsizlik choralariga rioya qilishlarini ta'minlash uchun ular uchun doimiy ravishda maxsus treninglar va seminarlar o'tkazilishi kerak. Xodimlarga mehnat xavfsizligi bo'yicha muntazam ravishda ma'lumotlar taqdim etish, xavf-xatarlarni oldini olish va baxtsiz hodisalar yuzaga kelmasligi uchun zarur bo'lgan maxsus ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, xodimlar o'rtasida xavfsizlik madaniyatini shakllantirish, ularning o'zaro hamkorlikda ishlashini va xavfsizlikni birgalikda ta'minlashni kuchaytiradi. O'qitish va tarbiyalash jarayonlari doimiy ravishda yangilanib borishi, yangi xavf-xatarlar va xavfsizlik choralariga oid ma'lumotlar xodimlarga yetkazilishi lozim.

Shuningdek, mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi ishlab chiqarish jarayonining har bir bosqichida xavf-xatarlarni aniqlash va oldini olishga imkon beradigan mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Har bir ish joyida xavfsizlikni nazorat qilishning maxsus protseduralari bo'lib, bu protseduralar xavf-xatarlarni kamaytirish va



shikastlanishlarni oldini olishga qaratilgan. Xavfsizlik boshqaruv tizimi ishlab chiqarish jarayonida ishlaydigan xodimlarning o'zaro aloqalarini boshqarish va xavfsiz ishlashning barcha jihatlarini nazorat qilishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, xodimlar o'rtasida xavfsizlikning ustuvorligi va ularning bu boradagi mas'uliyatlarini oshirishda yordam beradi. Bundan tashqari, MXBT ishlab chiqarish korxonalarida xavfsizlikni boshqarishning texnik va yuridik tomonlarini ham o'z ichiga oladi. Texnik jihatlar sifatida xavfsizlik uskunalari va qurilmalarining holati, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsizlikni ta'minlovchi texnologiyalarni joriy etish va ularning samaradorligini oshirish kiradi. Yuridik jihatlar esa, ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligi bo'yicha qo'llaniladigan normativ-huquqiy hujjatlar va me'yorlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish korxonalarida mehnat xavfsizligini ta'minlashga doir davlat va huquqiy tartiblar va nazorat mexanizmlari ham bevosita ahamiyat kasb etadi. Ishlab chiqarish korxonalarida xavfsizlik tizimining joriy etilishi orqali mehnat sharoitlari sezilarli darajada yaxshilanadi. Bu xodimlar o'rtasida ishonchni oshiradi va ularning ishga bo'lgan motivatsiyasini yuqori darajada ushlab turishga yordam beradi. Xodimlarning sog'lig'ini saqlash, baxtsiz hodisalarning oldini olish va ularning xavfsizligi ta'minlanishi, o'z navbatida, ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash va korxonaning iqtisodiy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mehnat

xavfsizligini boshqarish tizimining samarali ishlashi kompaniyaning obro'sini ham sezilarli darajada oshiradi. Mijozlar va jamoatchilik korxonaning xavfsizlikka qaratilgan sa'y-harakatlarini yuqori baholaydilar. Bu esa, korxonaning bozor raqobatbardoshligini oshiradi va mijozlar bilan ishonchli hamkorlikni o'rnatishga yordam beradi. Umuman olganda, ishlab chiqarish korxonalarida mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi nafaqat xodimlarning xavfsizligini ta'minlash, balki butun ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini oshirishga, iqtisodiy foyda olishga ham xizmat qiladi. O'z vaqtida amalga oshirilgan tahlil va boshqaruv choralarining natijasida baxtsiz hodisalar kamayib, ish joylarining xavfsizligi oshadi, shuningdek, kompaniyaning samaradorligi va iqtisodiy ko'rsatkichlari yaxshilanadi. Shu sababli, ishlab chiqarish korxonalarida mehnat xavfsizligi boshqaruv tizimini samarali joriy etish va uni uzluksiz rivojlantirish zaruriyatini ta'kidlab o'tish lozim.

Xulosa: Mehnat xavfsizligini boshqarish tizimi ishlab chiqarish korxonalarida ishlovchilarning sog'lig'i va xavfsizligini ta'minlashda, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu tizimning samarali ishlashi xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, jarohatlanish va kasalliklarning oldini olishga yordam beradi, ishlab chiqarishdagi xavf-xatarlarni kamaytiradi va mehnat resurslarini yaxshilashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. P.V.Yemelin,S.S.Kudryavtsev, Improving the data collection system for assessing the state of labor safety at the enterprises of the Republic of Kazakhstan, in: KazUEFITHerald,4,2022,pp.126–135, [https://doi.org/10.52260/2304-7216.2022.4\(49\).16](https://doi.org/10.52260/2304-7216.2022.4(49).16).
2. Y.Li,F.W.Guldenmund,Safety management systems: abroad over view of the literature,Saf.Sci.103(2018)94–123, <https://doi.org/10.1016/j.ssci.2017.11.016>.
3. C.D.Nwankwo,S.C.Theophilus,A.O.Arewa,A comparative analysis of process safety management (PSM) systems in the process industry//J.LossPrev,Process Ind.66(2020)104171, <https://doi.org/10.1016/j.jlp.2020.104171>.
4. F.Goerlandt,J.Li,G.Reniers,The landscape of safety management systems research:a scientometric analysis,J.Saf.Sci.Resil.3(3)(2022)189–208, <https://doi.org/10.1016/j.jnlssr.2022.02.003>.
5. M.N.Hossain,M.F.Howladar,Risk perception and safety analysis on petroleum production system of three gas fields in Bangladesh,J.Saf.Sci.Resil.4(3)(2022)362–371, <https://doi.org/10.1016/j.jnlssr.2022.08.003>.